Maktabgacha ta'lim tashkilotlari samaradorligini ta'minlashda direktor va pedagog xodimlarning hamkorlikdagi faoliyati.....	616
Olimjonova Odina Hasanxon qizi	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilish muammolari va ularni hal qilish yo'llari.....	620
Dilafruz Norboyeva	
"Kommunikativ kompetensiya" tushunchasining xorijiy va milliy manbalarda talqini: qiyosiy tahlil.....	624
G'ulomova Begoyim Elmurol qizi	
Ijtimoiy tarmoqlardagi jinsiy jinoyatlarning psixolingvistik tomonlari	627
Rahimqulova Lobar Hamro qizi	
К вопросу обучения местоимению в корейском языке	631
Муҳиддинова Малика Батировна	
The Importance and its Development Models of Critical Thinking	634
Khasanova Shokhista Mirzaakhmad kizi	
Gipertoniya kasalligining rivojlanishida sotsio-emotsional intellektning ta'siri	639
Alimirzayev Nodirbek Avazbek o'g'li	
Integratsiyalashgan va interaktiv yondashuvlar orqali o'qish tushunishini o'rgatish.....	643
Aliqulova Mohinur	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktorlarning shaxsiy kasbiy fazilatlarini shakllantirish.....	647
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ravshanova Noila	
Didactic Potential of Innovative Methods in Teaching Biophysics Module	652
Choriyeva Mahfuza Sadriddinovna	
Notiqlik mahoratini rivojlantirishning tarixiy pedagogik ildizlari	657
Ismoilov Usmonjon Baxramjon o'g'li	
Kartografiya darslarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan boyitish yo'llari	660
Jololdinov Asror Toshtemirovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruh tarbiyalanuvchilariga yo'l harakati turlari bo'yicha xavfsizlik talablarini o'rgatish.....	664
Jumayev Yunus Rashidovich	
Texnika yo'nalishidagi talabalarini ingliz tilini multimedia asosida o'qitishda o'quv modullarini loyihalash ...	670
Maxmudova Shaxnozaxon Odiljon qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida tanqidiy fikrlashga o'rgatish	674
Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna	
Tajovvuz emotsiyasini tafsiflovchi fe'llar	677
Normaxmatova Feruza Ruziboyevna	
O'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish usullari	681
Otegenov Berdibay Menglibaevich	
Texnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida rivojlantirish muammolari	684
Pozilova Shaxnoza Xaydaraliyevna, Xolmirzayeva Gulchehra Tulanovna	
Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari: talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodologik tamoyillar.....	689
Qurbonova Gulmira Alisher qizi	
Maktab o'quvchilarida xalqaro baholash dastur talablari asosida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari	693
Radjapov Ruslanbek Sarsenovich	
Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	697
Shoyzakova Hilola Yusuf qizi	
Talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida oliy ta'limda differensial yondashuvni amalga oshirish strategiyalari	701
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviyatini oshirishda kitobxonlikni keng targ'ib qilish	706
Usmanova Maxfuza	
Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirishning pedagogik asoslari	709
Xolov Olimjon Chorshamiyevich	



Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	712
<i>Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna</i>	
Влияние социальных сетей на формирование мировоззрения учащихся младшего подросткового возраста.....	716
<i>Ибрагимова З. И.</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasi	720
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'rne	725
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	



RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA BO'LJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING IJODIY-INTELLEKTUAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Shoyzakova Hilola Yusuf qizi

Guliston davlat universiteti,
 Axborot texnologiyalari va fizika-matematika fakulteti,
 fizika kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqot diagnostik, formativ va summativ bosqichlarda pedagogik kuzatuv, test, so'rovnomma va statistik tahlil metodlari asosida amalga oshirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, GeoGebra, PhET, Canva va Tinkercad kabi dasturiy vositalar talabalarning fanga qiziqishini oshirdi, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini berdi hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirdi. Tadqiqot xulosalari raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonining markaziy elementi sifatida qo'llashning samaradorligini asoslab berdi va o'qituvchilarni maxsus metodik tayyorgarlikdan o'tkazish zarurligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim texnologiyalari, ijodiy-intellektual kompetensiya, bo'lajak fizika o'qituvchilari, fizika ta'limi metodikasi, virtual laboratoriya, simulyatsiya dasturlari, GeoGebra, PhET, Canva, Tinkercad, Labster, pedagogik innovatsiyalar, raqamli platforma, ta'lim samaradorligi, STEAM va Eco-STEAM yondashuvlari, motivatsion faollik, kognitiv ko'nikmalar, kreativ tafakkur, o'quv jarayonini interaktivlashtirish, tajriba-sinov metodologiyasi, statistik tahlil, global ta'lim tendensiyalari.

Abstract: This article examines the development of creative and intellectual competencies of future physics teachers through the use of digital educational technologies. The research was carried out at diagnostic, formative, and summative stages using pedagogical observation, testing, surveys, and statistical analysis methods. The results demonstrated that software tools such as GeoGebra, PhET, Canva, and Tinkercad increased students' interest in the subject, enabled the integration of theoretical knowledge with practical activities, and fostered the development of creative thinking. The findings confirmed the effectiveness of using digital technologies as a central element of the educational process and highlighted the necessity of providing teachers with specialized methodological training.

Key words: digital educational technologies, creative and intellectual competence, future physics teachers, physics teaching methodology, virtual laboratory, simulation software, GeoGebra, PhET, Canva, Tinkercad, Labster, pedagogical innovations, digital platform, learning efficiency, STEAM and Eco-STEAM approaches, motivational activity, cognitive skills, creative thinking, interactive learning process, experimental research methodology, statistical analysis, global educational trends.

Аннотация: В статье раскрыта проблема развития творческо-интеллектуальных компетенций будущих учителей физики посредством использования цифровых образовательных технологий. Исследование было проведено на диагностическом, формативном и суммативном этапах на основе методов педагогического наблюдения, тестирования, анкетирования и статистического анализа. Результаты показали, что такие программные средства, как GeoGebra, PhET, Canva и Tinkercad, повысили интерес студентов к предмету, позволили интегрировать теоретические знания с практической деятельностью и способствовали развитию креативного мышления. Выводы исследования подтвердили эффективность использования цифровых технологий как центрального элемента образовательного процесса и подчеркнули необходимость специальной методической подготовки преподавателей.

Ключевые слова: цифровые образовательные технологии, творческо-интеллектуальная компетенция, будущие учителя физики, методика преподавания физики, виртуальная лаборатория, симуляционные программы, GeoGebra, PhET, Canva, Tinkercad, Labster, педагогические инновации, цифровая платформа, эффективность обучения, STEAM и Eco-STEAM подходы, мотивационная активность, когнитивные навыки, креативное мышление, интерактивизация учебного процесса, экспериментально-исследовательская методология, статистический анализ, глобальные образовательные тенденции.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini tubdan yangilashga olib keldi. UNESCOning 2015-yildagi Incheon deklaratsiyasi hamda OECDning "Future of Education and Skills 2030" konsepsiyalarida raqamlashtirish va innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish global ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bunday sharoitda nafaqat umumiy o'quv jarayoni, balki bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimi ham yangi paradigmalarda asosida shakllanmoqda.

Ayniqsa, fizika kabi tabiiy fanlarda murakkab jarayonlarni modellashtirish, hodisalarni vizual ko'rinishda taqdim etish va talabalarda ijodiy-intellektual kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Shu bois, fizika fani o'qituvchilarini tayyorlashda an'anaviy metodlardan tashqari, zamonaviy dasturiy vositalar va virtual muhitlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayonni samarali tashkil etishda GeoGebra, PhET, Labster, Canva, Tinkercad kabi raqamli vositalar katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash, mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion g'oyalar ishlab chiqish ko'nikmalari shakllanadi.

Shunga qaramay, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida fizika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanish masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, ijodiy-intellektual kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan, metodik ta'minot tizimi esa to'liq shakllanmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqot raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini eksperimental tarzda asoslashga qaratildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi o'n yilliklarda dunyo ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. UNESCO hamda OECD tomonidan ishlab chiqilgan strategik hujjatlarda ta'limni raqamlashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish va innovatsion pedagogik metodlarni keng joriy etish kelajak avlodni tayyorlashning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchilarning, ayniqsa tabiiy fanlar pedagoglarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi xalqaro miqyosda keng muhokama qilinmoqda.

Xorijiy olimlardan E. Mazur "Peer Instruction" metodini joriy etib, fizika ta'limida interaktiv yondashuvlarning samaradorligini isbotlagan. Yu. Sokoloff o'z tadqiqotlarida fizika laboratoriyalarida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarda mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini kuchaytirishini ta'kidlagan. A. Clark va J. Mayer esa multimedia asosidagi ta'limning kognitiv jarayonlarga ta'sirini o'rganib, vizual va audio vositalar birgalikda qo'llanganda o'quv samaradorligi ortishini ko'rsatgan.

Mahalliy olimlardan Q. Karlbaeva bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodlarini ishlab chiqqan, D. Jumaniyozova esa raqamli texnologiyalardan foydalanishda psixologik-pedagogik yondashuvlarni asoslab bergan. Shuningdek, G. Saytimbetova fizika ta'limida innovatsion metodlar va raqamli muhitdan foydalanish orqali talabalar mustaqil faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan.

Ta'limda raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha alohida tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, GeoGebra dasturi yordamida matematik va fizik jarayonlarni modellashtirish, PhET simulyatsiyalari orqali virtual tajribalarni tashkil etish, Labster platformasi asosida interaktiv laboratoriyalarni qo'llash, Canva va PowerPoint dasturlari yordamida dizayn asosidagi ijodiy yondashuvlarni shakllantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar keng yoyilgan.

O'zbekiston oliy ta'limida ham so'nggi yillarda Prezident qaror va farmonlari asosida raqamli ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, PF-60 "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026 yillar" farmonida raqamli ta'limni joriy etish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, PQ-4884 qarorida raqamli pedagogik vositalar asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

Shu bilan birga, ilmiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak fizika o'qituvchilarining aynan ijodiy-intellektual kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks metodik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning ob'ekti – oliy ta'lim muassasalarida fizika fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonidir. Predmeti – raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi va uning samaradorligidir.



Tajriba-sinov ishlari Guliston davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Qo'qon davlat pedagogika institutida olib borildi. Umumiy hisobda 318 nafar 3–4-kurs talaba tadqiqotda qatnashdi. Ulardan 160 nafari tajriba guruhiga, 158 nafari esa nazorat guruhiga birlashtirildi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlar qo'llanildi:

- **Pedagogik kuzatuv** – dars jarayonida talabalar faoliyatini aniqlash.
- **Test sinovlari** – bilim va ko'nikmalar darajasini baholash.
- **Suhbat va so'rovnoma** – talabalarning raqamli texnologiyalardan foydalanishga bo'lgan munosabatini aniqlash.
- **Tajriba-sinov** – tajriba va nazorat guruhlarini faoliyatini taqqoslash.
- **Statistik tahlil** – olingan natijalarni matematik-statistik usullar orqali ishonchligini tekshirish.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. **Diagnostik bosqich** – talabalar ijodiy-intellektual kompetensiyalarining dastlabki darajasi aniqlanib, mezon va ko'rsatkichlar ishlab chiqildi.
2. **Formativ bosqich** – tajriba guruhlarida GeoGebra, PhET, Canva, Tinkercad kabi raqamli vositalardan foydalanishga asoslangan dars mashg'ulotlari tashkil etildi.
3. **Summativ bosqich** – yakuniy natijalar tahlil qilinib, nazorat guruhi bilan solishtirish asosida samaradorlik baholandi.

Talabalarning ijodiy-intellektual kompetensiyalari quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- **Motivatsion faollik** – fanga qiziqish va tashabbus ko'rsatish darajasi.
- **Kognitiv ko'rsatkich** – nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati.
- **Faoliyat ko'rsatkichi** – muammoli vaziyatlarni hal etish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash.
- **Ijodiy-intellektual ko'rsatkich** – yangi g'oyalar ishlab chiqish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Dastlabki diagnostik bosqichda tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalar ko'rsatkichlari deyarli bir xil bo'lib, ularning aksariyatida motivatsion faollik, kognitiv bilimlarni qo'llash va ijodiy-intellektual faoliyat darajasi past yoki o'rta ko'rsatkichlarda qayd etildi.

Formativ bosqichda tajriba guruhida **GeoGebra, PhET, Canva, Tinkercad** kabi dasturiy vositalardan foydalanishga asoslangan mashg'ulotlar tashkil etildi. Bu jarayon talabalarni o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirdi, ularning mustaqil izlanish va muammoli vaziyatlarga yechim topishga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Ayniqsa, PhET simulyatsiyalari orqali fizik hodisalarni vizuallashtirish, GeoGebra yordamida grafik modellar yaratish va Canva asosida dizayn ko'nikmalarini shakllantirish talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qildi.

Summativ bosqichda olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida talabalarning ijodiy-intellektual kompetensiyalarida aniq ijobiy o'sish kuzatildi. Xususan:

- **Motivatsion faollik** mezoni bo'yicha talabalar fan bo'yicha qiziqish va tashabbuskorlik namoyon etdilar.
- **Kognitiv ko'rsatkichlar** bo'yicha nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash samaradorligi oshdi.
- **Faoliyat ko'rsatkichlari** bo'yicha talabalar mustaqil tajriba o'tkazish, muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirdilar.
- **Ijodiy-intellektual ko'rsatkichlar** bo'yicha esa yangi g'oyalar ishlab chiqish va innovatsion yechimlar taklif etish darajasi sezilarli oshdi.

Nazorat guruhida esa an'anaviy usullar asosida olib borilgan mashg'ulotlar natijasida talabalarda sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi. Bu esa tajriba guruhida qo'llangan raqamli ta'lim texnologiyalarining samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli vositalardan foydalanish bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali metodik yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki amaliy faoliyatda innovatsion yondashuvlarni qo'llash, yangi g'oyalar ishlab chiqish va ijodiy-intellektual salohiyatni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tajriba-sinov natijalari tahlili xalqaro ilmiy xulosalar bilan hamohangdir. Masalan, Mazur tomonidan ilgari surilgan "Peer Instruction" metodida talabalarni faollikka jalb etish va raqamli muhitda interaktiv muloqotni tashkil etish orqali bilim samaradorligini oshirish mumkinligi ta'kidlangan. Bizning tadqiqotda PhET va GeoGebra dasturlaridan foydalanish talabalarning aynan shu turdagi interaktiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilgani kuzatildi.

Shuningdek, Clark va Mayer tomonidan multimedia ta'limi bo'yicha keltirilgan ilmiy asoslar ham bizning natijalarimizni qo'llab-quvvatlaydi. Ularning fikricha, vizual va audio materiallarning uyg'un qo'llanilishi o'quv jarayonida diqqatni jalb etish va bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Bizning tajribamizda ham vizual-lashtirilgan simulyatsiyalar, dizayn va grafik modellar yordamida talabalarda fanga nisbatan yuqori motivatsiya shakllandi.

O'zbekiston olimlarining ishlari bilan taqqoslaganda, mazkur tadqiqot natijalari ularning ilmiy izlanishlarini amaliy jihatdan kengaytiradi. Karlbaeva tomonidan kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodlari ishlab chiqilgan bo'lsa, bizning tadqiqotda bu jarayonni to'liq raqamli vositalar orqali qo'llash samaradorligi isbotlandi. Jumaniyozova ta'limda raqamli texnologiyalarning psixologik-pedagogik asoslarini yoritgan bo'lsa, bizning natijalar ushbu asoslarning amaliy samaradorligini eksperimental tarzda ko'rsatib berdi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shundaki, talabalarning ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishda faqat dasturiy vositalar emas, balki to'g'ri metodik yondashuv ham katta ahamiyatga ega. Agar raqamli texnologiyalar faqat qo'shimcha vosita sifatida emas, balki o'quv jarayonining markaziy elementi sifatida qo'llansa, u talabalarni ijodiy fikrlashga, mustaqil izlanishga va innovatsion faoliyatga yo'naltiradi.

Biroq, tadqiqot davomida ayrim muammoli jihatlar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim talabalar dastlab raqamli vositalardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishdi, chunki ularning kompyuter savodxonligi yetarli darajada shakllanmagan edi. Bu esa kelajakda ta'lim jarayoniga raqamli vositalarni joriy etishda o'qituvchilar uchun maxsus tayyorgarlik kurslarini tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali strategiya hisoblanadi. U nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki talabalarni global mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga ham xizmat qiladi.

Amaliy tavsiyalar sifatida fizika ta'limi jarayonida virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlarini keng qo'llash, bo'lajak o'qituvchilarni raqamli vositalardan foydalanishga o'rgatish uchun maxsus kurs va treninglar tashkil etish, oliy ta'lim muassasalarida raqamli pedagogik platformalarni joriy etish va ularni muntazam yangilab borish, shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganib, mahalliy sharoitga moslashtirilgan metodik qo'llanmalar yaratish zarur.

Mazkur tadqiqot nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham o'z samaradorligini ko'rsatdi. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, raqamli texnologiyalar asosida ijodiy-intellektual kompetensiyalarni rivojlantirish bo'lajak fizika o'qituvchilarini zamonaviy ta'lim talablari va global mehnat bozoriga mos ravishda tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xushvaqto'v B.N. Fizikaning "Optika" bo'limini noan'anaviy o'qitish metodikasini takomillashtirish (pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida): Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Buxoro, 2020. – 46 b.
2. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dokt. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2012. – 46 b.
3. Shayzakova D.A. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar va zamonaviy usullar asosida kimyo fanini o'qitish mazmunini takomillashtirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida): Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Samarqand, 2020. – 48 b.
4. Sheraliyev S.S. Fizikaning "Tebranish va to'liqlar" bo'limini o'qitishdagi elektron qo'llanmalarining mazmuni va metodikasini takomillashtirish (akademik litseylar misolida): Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 8 b.
5. Shertaylaqov G'.M. Maktabda fizikadan nostandart laboratoriya ishlarini bajarishda o'quvchi kreativ faoliyatini rivojlantirish: Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 8 b.
6. Shoyzakova H.Y. Digital technologies in physics education: creative intellectual competencies of future teachers. International Journal of Education and Practice (Scopus Indexed). – 2023. Retrieved from: <http://scholar.google.com>.
7. Shoyzakova H.Y. The effectiveness of virtual laboratories in teaching molecular physics. Journal of Pedagogical Research (Scopus Indexed). – 2023. Retrieved from: <http://scholar.google.com>.
8. Shoyzakova H.Y. Raqamli pedagogik vositalar yordamida fizika fanini o'qitishning innovatsion yondashuvlari. OAK tavsiya etilgan mahalliy jurnal. – 2022. Retrieved from: <http://scholar.google.com>.
9. Shoyzakova H.Y. Mexanika bo'limini o'qitishda pedagogik muammolar va ularni hal etish yo'llari. Xalqaro OAK jurnal. – 2022. Retrieved from: <http://scholar.google.com>.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.